

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov Sinovlarda toblangan ijod.....	6
G.M.Kirgizova Iqbol Mirzo ijodiy mahoratining shakllanish omillari.....	9
S.R.Mirzayeva Common features in the life and work of Babur and Navoi.....	13
S.R.Meliboyeva Zamonaviy o'zbek she'riyatida sun'iy intellekt va inson hissiyotining badiiy ifodasi muammosi.....	18
Я.И.Нишанов, Х.Жўраев Выражение общечеловеческих и национальных особенностей в повествованиях о Юсуфе.....	23
D.M.Khoshimova "Boburnoma" asarining lingvistik xususiyatlari.....	27
Z.T.Hakimova Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining leksikografik xususiyatlari.....	30
Z.T.Hakimova Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining tarjimaviy muammolari.....	33
D.O.Umarov Roman janri haqida mulohazalar.....	36
D.M.Khoshimova An analysis of "Baburnama" in comparison with its translation.....	39
Я.И.Нишанов, К.С.Туллекова Любовь в лирике Саффо и Марины Цветаевой: сравнительный анализ.....	42
N.Farmonov Naturalism and consumer desire: Theodore Dreiser and the culture of American capitalism.....	47
Я.И.Нишанов Ассоциативно-вербальные сети концепта старость в языковом сознании носителей русского языка.....	51
D.D.G'ulomov Assotsiativ syujet: genezesi, nazariy paradigmasi va adabiy tahlili.....	55
K.Egamberdiyeva Badiiy adabiyotda ayol ruhiyati va ma'naviy olaminining aks ettirilishi.....	59
D.M.Abdullayeva Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari va unda ota obrazi.....	67
M.T.Tolibova Isajon Sulton hikoyalarining syujet qurilishi.....	71
A.A.Abduraxmonov Halima Xudoyberdiyeva lirikasida oq rang.....	74
F.X.Nurdinova Tarjimada leksik adekvatlikni ta'minlash (E.L.Voynichning "So'na" romanining rus va o'zbek tillari tarjimasi misolida).....	77
F.X.Nurdinova Tarjima jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash masalalari.....	81

TILSHUNOSLIK

M.M.Abdullayeva Integrating Social-Emotional Learning in foreign language classrooms: benefits and strategies.....	86
M.Y.Mamajonov	



UO'K: 82.09:82-311

ROMAN JANRI HAQIDA MULHAZALAR**REFLECTIONS ON THE NOVEL GENRE****РАЗМЫШЛЕНИЯ О ЖАНРЕ РОМАНА****Umarov Davron Odiljon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada roman janrining ilk davri, jahon adabiyotidagi janr taraqqiyoti hamda roman nazariyasiga oid ko'plab adabiyotshunos olimlarning mulohazalari qiyosiy tahlil qilinadi. Roman atamasining istilohiy ma'nosi tasniflanadi. Shuningdek, o'zbek adabiyotida roman janrining ilk namunalari haqida ma'lumotlar beriladi. Maqola roman janrining shakllanish jarayoni va uning milliy adabiyotdagi rivoji haqida umumiy tushuncha beradi.

Abstract

This article provides a comparative analysis of the early period of the novel genre, its development in world literature, and the perspectives of numerous literary scholars on novel theory. The terminological meaning of the term novel is classified. Additionally, the article presents information on the earliest examples of the novel genre in Uzbek literature, offering a general understanding of its formation and development within the national literary context.

Аннотация

В данной статье представлен сравнительный анализ раннего периода жанра романа, его развития в мировой литературе, а также взглядов многочисленных литературоведов на теорию романа. Классифицировано терминологическое значение понятия «роман». Кроме того, приведены сведения о первых образцах жанра романа в узбекской литературе, что позволяет получить общее представление о процессе формирования жанра и его развитии в национальной литературе.

Kalit so'zlar: Adabiy tur va janrlar, epos, roman, epopeya, burjua adabiyoti, realizm, zamonaviy epos, milliy roman.

Key words: Literary types and genres, epic, novel, epopee, bourgeois literature, realism, modern epic, national novel.

Ключевые слова: Литературные роды и жанры, эпос, роман, эпопея, буржуазная литература, реализм, современный эпос, национальный роман.

KIRISH

Ko'plab san'at turlari qatori adabiyotda ham xilma-xil janrlar mavjud. Har bir janr o'ziga xos jihatlari, ifoda shakli, tasvir ko'lami, g'oyaviy yuki va hissiy-emotsionallik darajasi bilan bir-biridan farqlanadi. Shunday janrlar ichida *har bir davrning estetik didi va ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga moslashib, adabiyotdagi yangiliklarni zudlik bilan o'ziga singdirgan holda mudom shakllanishda yashovchi* [1.172] roman janri alohida mavqega ega. Hattoki, ma'lum bir xalq adabiyotining mavqeyi va "hurmati"ga roman janri takomili darajasiga qarab baho berish hollari ham kuzatiladi. Fikrimizning isboti sifatida o'zbek adabiyotshunosligining yetuk olimlaridan biri Umarali Normatovning roman janri haqida "Har bir millat adabiyotining bo'y-basti, darajasi, avvalo, shu janr kamolotiga qarab belgilanadi desam, buni hech kim mubolag'aga yo'ymaydi", - degan fikrlarini keltirishimiz mumkin. Bunga o'xshash ta'rif va xulosalar adabiyotshunoslik ilmidagi juda ko'p uchraydi. Shuning o'ziyoq, adabiyotdagi boshqa janrlarning o'z o'rnini va mavqeyiga dahl qilmagan holda roman janriga bo'lgan e'tibor va talabning darajasini anglashga yetarlidir.

Roman janrining vujudga kelishi haqidagi qarashlar, hamda unga berilgan ta'rif-tavsiflar xilma-xil, hattoki, bir-birini inkor qiladigan fikrlar, xulosalar ham uchraydi. Nemis faylasufi ta'kidlaganidek, roman janrining tabiati "mangu shakllanishda bo'lish va hech qachon tugallanmaslikda". Yoki rus adabiyotshunosi M.Baxtinning: "adabiy janrlar ichida romanchalik beqaror, shakl va mazmunini doimiy o'zgartirib turadigan, muayyan qolipga bo'ysunmaydigan

ADABIYOTSHUNOSLIK

ikkinchi bir janrni topish qiyin", - degan fikri yuqoridagi xulosamizni asoslaydi. Bu fikrdan janrga berilgan ta'riflar, nazariy xulosalar uning mohiyatini to'liq qamrab ololmasligi oydinlashadi. Shunga qaramasdan, juda ko'p faylasuf, adabiyotshunos va ijodkorlar tomonidan romanning janr xususiyatlari, shakl qonuniyatlari, tabiati haqida puxta hamda "toshi og'ir" fikrlar bildirilgan. Bunday manbalar janr nazariyasi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Roman uzoq va boy tarixga ega bo'lib, uning ildizlari qadimiy yunon va rim adabiyotiga borib taqaladi degan qarash mavjud. Eng dastlabki romanlarga eramizdan oldingi I asrdan milodiy II asrgacha bo'lgan davrdagi klassik yunon va lotin proza hikoyalari kirishi ta'kidlangan. Undan keyingi asrlarda ham bir necha ijodkorlar asarlarida roman janriga xos xususiyatlar uchraydi. Bunday manbalar roman janrining asoslarini yaratdi va hozirgi kungacha uning shakllanishida muhim o'rin tutadigan ba'zi an'analarni o'rnatdi. Masalan, xarakter rivojlanishi va psixologik chuqurlik orqali realizm tuyg'usini yaratish shunday an'analardan hisoblanadi. XVII asrda yaratilgan "Romanlarning paydo bo'lishi haqida risola" manbasida ham janr antik davrlarda yuzga kelgani va uzoq yillar davomida rivojlanish jarayonida hozirgi holatga kelgani ta'kidlangan. Ko'p o'rinlarda zamonaviy Yevropa romani Migel de Servantesning 1605-yilda nashr etilgan "Don Kixot" asari bilan boshlangan degan qarash mavjud. Keyinchalik XVIII-XIX asrlarga kelib Yevropa va Amerikada mashhur va keng qamrovli adabiyot shakliga aylangani aytiladi. O'sha davrlarda roman sezilarli rivojlanish va o'zgarishlarga duch keldi, V.Skott va J.Ostin kabi mashhur ijodkorlar janr rivojiga katta hissa qo'shishdi. Bularga qo'shimcha, nashriyot sanoatining rivojlanishi va matbaa ixtirosi ham janrning keng tarqalishida muhim rol o'ynadi. Nemis faylasufi Gegel romanni "*burjua epopeyasi*", rus tanqidchisi Belinskiy esa "*yangi davr eposi*", -deb atagan. Buning sababi sifatida epos va romanning munosabati, ya'ni roman genezisi haqida fikr yuritilganda, "*uning eposdan o'sib chiqqani, taraqqiyotining muayyan davrlarida o'zida eposga xos xususiyatlarni ko'proq saqlab kelgani, shundan so'nggina "zamonaviy epos" maqomini olgani*" ta'kidlanadi. Keyingi davrlarda esa bu janr adabiyot olamida qanday "inqilob"lar amalga oshirgani, adabiyot bag'rida qanday katta nomlar "tug'ilgani" va tafakkur tarzida qanday evrilishlar yasaniga tarix guvoh.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Roman" atamasining paydo bo'lishi haqidagi ma'lumotlarda ham qiziq va farqli holatlarga duch kelamiz. Bir-birini to'ldirishga, janr rivojiga turli aspektdan baho berishga yordam beradigan bunday farqlar janr nazariy takomilida muhim rol o'ynaydi. Tarixdan bilamizki, *Yevropa xalqlarining badiiy va ilmiy asarlari o'rta asrlarda lotin tilida yozilgan, bunday asarlar XII-XIII asrlarda lotin tili bilan bir qatorda roman tillarida ham yozila boshlagan va bunday asarlar "roman hikoyasi" (contre roman) deb nomlangan.* [2.214] Keyinchalik bu atama epik turning eng katta janrlaridan biri "roman" ma'nosida ishlatila boshlangan. Ingliz manbalarida, xususan, Merriam-Webster lug'atida romanga "o'ylab topilgan (badiiy) proza shaklidagi hikoya bo'lib, odatda uzun va murakkab bo'ladi hamda insoniy tajriba, kechinma, hayotiy voqealarni bog'liq voqealar zanjiri orqali yoritadi", - deb ta'rif berilgan. O'zbek manbalarida esa "zamonaviy adabiyotda epik turning yirik hajmli janri" [3.257] kabi ta'rifni ko'rish mumkin. Manbada fikr davom ettirilib "uning hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi; murakkab ko'p chiziqli syujetga ega bo'lishi" kabi janr xususiyatlari sanab o'tilgan. Odatda, janrga shunday ta'rif berilsa-da, ko'plab istisnoli holatlar uchraydi. Bu yuqoridagi ta'kidlanganidek: roman janrining uzliksiz rivojlanish jarayoni, ayni davrning ijtimoiy-badiiy tafakkur mahsuli ekanligi, jamiyatning real holatiga faol munosabati bilan xarakterlanadi. XX asr 80-yillar oxirida yetuk o'zbek adabiyotshunos olimi A.Rahimov tomonidan romanga berilgan "*...shakllanayotgan, hali suyagi qotmagan*" [4.16] ta'rifi hozirgi kun uchun ham dolzarbligi yo'qotmagan. Biz, yuqoridagi mulohazali va faqarli holatlardan "roman janri" haqida hukm chiqarayotganda, qaysidir romanni tahlil qilayotganda bir yoqlamalikka yo'l qo'ymaslik, ko'plab faktorlarni, va albatta ayni davrdagi real ijtimoiy-ma'naviy tafakkurni hisobga olishimiz zarurligini anglab yetishimiz zarur.

XX asrning 1-yarmi o'zbek adabiyoti, xususan, adabiyotshunosligiga "yangilanishlar davri" sifatida tarixga kirdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, bu davrda badiiy tafakkur tarzida evrilishlar sodir bo'ldi, adabiyotga ko'plab yangi adabiy janrlar, ijtimoiy-siyosiy mavzular kirib keldi.

O'zbek romani ham katta yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lning boshida Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Sadridin Ayniy, Oybek kabi mohir adiblar yo'l boshladi. Janrning badiiy barkamol namunasi XX asr 20-yillarida Abdulla Qodiriy tomonidan yaratildi. 1922-yilda yozib tugallangan "O'tkan kunlar" tom ma'noda *o'zbek milliy romani* edi. Shu tariqa Abdulla Qodiriy o'zbek romaniga asos soldi. Bundan keyingi nasrnavislikdagi izlanishlar o'sha yillarda "Mehrobdan Chayon", "Qullar", "Kecha va Kunduz", "Sarob", "Qutlug' qon", "Dushman" kabi yaxshi romanlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlidir. Roman janri hali nisbatan "yoshligi", hamda ilk izlanish davrida ekanligi hisobiga bu romanlar mazmun, shakl, uslub jihatidan bir-biriga yaqin yaratilgan edi. Shunday bo'lsa-da, ijodkorlarda obrazlar qisimatini kutilmaganda, keskin voqealar girdobida ko'rsatish, romantik kayfiyatni real fojeaviy holatlar birligida aks ettirish, qahramonlar taqdiriga kitobxonni sherik qila olish fazilati ko'zga tashlangan. Ayniqsa, bu hol Abdulla Qodiriy ijodida yaqqol namoyon bo'lgan. Keyinchalik janr an'analari va tajribalaridan foydalanib Odil Yoqubov, Asqad Muxtor, Pirmqul Qodirov, Said Ahmad kabi nosirlar roman janrining go'zal namunalari yaratdi.

XULOSA

Tarixdan ma'lumki, XX asr 20-yillarida shaxsga sig'inish avjiga chiqdi. Millatni jaholatdan, qoloqlikdan qutqarishga uringan ziyolilarga turli yo'llar bilan tuhmatlar amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonda ijodkorlar asarlariga ham hujum boshlandi. Madaniy yutuqlarga qarshi yurishda birinchi zarba romanlarga qaratildi. Romanlarni "yot asar" va "bizning roman emas"ga chiqarish, asar orginalligini shubhaga olish yo'lida turli tadqiqot va maqolalar olib borildi. Shunday qilib, o'zbek romanchiligining ilk namunalari yetarli qadrlanmadi. Ko'p asarlar o'rinsiz tuhmat va da'volar bilan kitobxonlar qo'lidan yig'ishtirib olindi. Ayrim adabiyotshunos va tanqidchilar har xil "nazariy asoslar"ga tayanib ilk romanlarga qarshi jang olib bordi. Natijada, bir necha yillar davomida yirik asarlar yaratilmadi. Bu holat faqatgina romanchiligimizga emas, umuman madaniyatimizga katta zarar olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Курунов Д. Муталаа ва идрок машқлари. "Роман ҳақида айрим мулоҳазалар" мақоласи. Тошкент: «Академнашр», 2013, 406 бет.
2. Адабиёт назарияси. II томлик. 2 том. Адабий-тарихий жараён. - Тошкент., 1979.
3. Курунов Д, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013.
4. Раҳимов А. Романнинг тарҳи. – Тошкент:Ўзбекистон, 1989.
5. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. 1-жилд. Эпос. – Тошкент: Фан, 1991.